XALQ DEPUTATLARI VOBKENT TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-21-146-2-33-K/25 Vobkent tumani

Vobkent tumanining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti toʻgʻrisida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi OʻRQ-1105-son Qonuni hamda xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi “Buxoro viloyatining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi VII-21-112-2-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq xalq deputatlari Vobkent tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Oʻzbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti toʻgʻrisida”gi OʻRQ-1105-son Qonuni hamda xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi “Buxoro viloyatining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi VII-21-112-2-0-K/25-sonli qarori (keyingi oʻrinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Vobkent tumani mahalliy byudjetining 2026-yilgi daromadlari **138 595,1 mln**.soʻm hamda mutanosib ravishda xarajatlari **138 595,1 mln**.soʻmga tasdiqlanganligi, shuningdek, Vobkent tumani mahalliy byudjetining shaxsiy gʻazna hisobvaragʻida turgan byudjet mablagʻlarining yoʻl qoʻyiladigan eng kam miqdori **1077,0 mln**.soʻm etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Vobkent tumani byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz koʻrsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda Vobkent tumani byudjetidan 2026-yilda hududiy byudjet mablagʻlarini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, shuningdek, Vobkent tumani mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar meʼyorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Vobkent tumani byudjeti zaxira jamgʻarmasi hajmi 2026-yil uchun **1789,9 mln**.soʻm miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamgʻarmasi mablagʻlarini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib boʻlmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur boʻlgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yoʻnaltirilishi taʼminlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari — tuman iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻi M.Malikov, tuman iqtisodiyot va moliya boʻlimi (J.Xidirov), tuman soliq inspeksiyasi (A.Xolmurodov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan koʻrsatkichlarni oʻz vaqtida va samarali bajarilishini taʼminlash choralarini koʻrsin.

6. Hududiy byudjet mablagʻlarini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablagʻlarining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablagʻlarini taqsimlovchilar:

byudjetdan ajratilgan mablagʻlardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan toʻlovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni toʻliq rejalashtirilishi va oʻz vaqtida toʻlanishi;

oʻzlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining toʻgʻri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablagʻlarning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning toʻliq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablagʻlarning toʻgʻri taqsimlanishi;

oʻz tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

byudjet jarayonining ochiqligini taʼminlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda maʼlumotlarni joylashtirib borilishini taʼminlasinlar.

7. Mazkur qaror “Vobkent hayoti” tuman gazetasi tahririyati va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi raisi A.Qurbonov hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari — tuman iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻi M.Malikov zimmasiga yuklatilsin.

9. Ushbu qaror rasmiy eʼlon qilingan kundan eʼtiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **OSTONOV AKMAL ANVAROVICH**

Xalq deputatlari Vobkent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-146-2-33-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Vobkent tuman byudjeti daromadlarining 2026-yildagi asosiy prognoz koʻrsatkichlari

ming soʻmda

T/R	Daromad turlari	Kontingent reja	Mahalliy reja
1.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	0,0	3 605 490,0
2.	Aylanmadan olinadigan soliq	8 903 540,0	8 903 540,0
3.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	4 857 043,0	38 043 960,0
4.	Qo'shilgan qiymat solig'i	0,0	8 874 120,0
5.	Aksiz solig'i, jami	0,0	22 578 698,0
	shu jumladan:		
	- alkogol mahsulotlaridan soliq	*0,0*	*0,0*
	- benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiyasidan soliq	*0,0*	*22 578 698,0*
6.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	467 000,0	3 076 000,0
7.	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	11 199 000,0	11 199 000,0
8.	Yuridik shaxslar yer solig'i	740 000,0	15 117 000,0
9.	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	18 547 738,0	18 547 738,0
10.	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	0,0	0,0
11.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	394 000,0	4 636 000,0
12.	Davlat boji	0,0	1 115 400,0
13.	Jarimalar	0,0	1 977 800,0
14.	Ijara to'lovi	87 000,0	87 000,0
15.	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	0,0	0,0
16.	Yig'imlar	0,0	833 360,0
17.	Xususiylashtirish	0,0	0,0
18.	Boshqalar	0,0	0,0
JAMI		**45 195 321,0**	**138 595 106,0**

Xalq deputatlari Vobkent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-146-2-33-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Vobkent tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablagʻlari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablagʻlarning cheklangan miqdorlari

ming soʻm

№	Hududiy byudjet mablagʻlari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**138 595 106,0**
1.	Maktabgacha va Maktab taʼlimi boʻlimi	44 351 739,0
	shundan:	
	"Mening maktabim"	2 595 600,0
2.	Madaniyat boʻlimi	7 208 188,0
3.	Yoshlar ishlari agentligining hududiy boʻlimi	5 455 945,0
4.	Sport boʻlimi	10 199 642,0
5.	Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boʻlimi	1 697 457,0
6.	Qishloq xoʻjaligi soha tashkilotlari	4 715 307,0
7.	Suv yetkazib berish xizmati DM	2 364 210,0
8.	Iqtisodiyot va moliya boʻlimi	2 565 952,0
9.	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy boʻlimi Ijtimoiy koʻnikma markazlari xarajatlari	105 463,0
10.	Hokimiyat	35 289 645,0
	shundan:	
	Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasi	*18 223 593,0*
	"Mahalla byudjeti" jamgʻarmasi mablagʻlari	*1 807 000,0*
	Zahira jamgʻarmasi	*1 789 872,0*
11.	Hokimiyat (Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	1 079 452,0
	shundan:	
	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*79 634,0*
	Axborot-kutubxona markazlari	*999 818,0*
12.	Obodonlashtirish boshqarmasi	23 562 106,0
13.	Boshqa tashkilotlar	0,0

Xalq deputatlari Vobkent tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-146-2-33-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yilda Vobkent tuman mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma me’yorlari

foiz hisobida

№	Mahalliy byudjet nomi	Qo‘shilgan qiymat solig‘i				Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan				Foyda solig‘i				Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				Pivo				Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq			
		Tuman byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1.	Vobkent tumani	0%	12%	20%	8%	0%	59%	100%	41%	100%	100%	0%	0%	0%	59%	100%	41%	0%	0%	30%	30%	0%	0%	30%	30%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%

№	Mahalliy byudjet nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i				Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar				Aylanmadan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy miqdorda belgilangan soliq	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	Davlat boji		Jarimalar		Yig‘imlar	
		Tuman byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman byudjetiga	Tuman byudjetiga	Tuman byudjetiga	Tuman byudjetiga	Tuman byudjetiga	Tuman byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar												

1.	Vobkent tumani	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	100%	100%	100%	22%	78%	22%	78%	22%	78%